

ODAM PAPILLOMA VIRUSINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA O'SMA KASALLIKLARI

Yodgorov O.A.¹, Raxmanova J.A.², Tashpulatova Sh.A.³

¹*O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi*

²*Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi*

³*Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi*

EPIDEMIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF HUMAN PAPILLOMA VIRUS AND ONCOLOGICAL DISEASES

Yodgorov O.A.¹, Rakhmanova J.A.², Tashpulatova Sh.A.³

¹*Committee for Sanitary and Epidemiological Wellbeing and Public Health under the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan*

²*Center for Professional Development of Medical Personnel*

³*Tashkent State Medical University*

ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВИРУСА ПАПИЛЛОМЫ ЧЕЛОВЕКА И ОНКОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ

Ёдгоров У.А.¹, Рахманова Ж.А.², Ташпулатова Ш.А.³

¹*Комитет санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья при Министерстве здравоохранения Республики Узбекистан*

²*Центр повышения профессиональной квалификации медицинских работников*

³*Ташкентский государственный медицинский университет*

https://doi.org/10.62209/SPJ/vol6_Iss1/art20

Annotatsiya. Odam papilloma virusi (OPV) terida va shilliq pardalarda joylashuvchi keng tarqalgan va 200 dan ortiq shtamlardan iborat bo'lgan virus guruhidir. Ular teri orqali kontaktda bo'lganda va asosan jinsiy aloqa paytida yuqadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirda odam papilloma virusining 200 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, ulardan taxminan 30 tasi jinsiy a'zolarining o'sma kasalligiga olib kelishi mumkin. Odam papillomasi virusining 14 ta turi onkogen hisoblanib, o'sma kasalligini keltirib chiqarishi ehtimolligi yuqori hisoblanadi va bu borada odam papilloma virusining 16-chi va 18-chi turlari ayollarda 70% holatda bachadon bo'yni o'sma kasalligini keltirib chaqirishi bilan xavfli hisoblanadi. Erkaklar ham xavf guruhiga kiradi, virusning yuqori onkogen turlari erkaklarda burun-xalqum, jinsiy va boshqa a'zolar o'sma kasalligini keltirib chiqarishi mumkin. Virusga duchor bo'lgandan keyin 12-24 oy ichida OPV infeksiyalarining 90% yo'qoladi yoki faol bo'lmaydi. Ammo, yuqori xavfli OPV infeksiyalari organizmda saqlanib qoladi va bu ayollar va erkaklar orasida o'sma kasalligining paydo bo'lish xavfini oshiradi.

Kalit so'zlar: Odam papilloma virusi, shtamlar, virus, yuqori xavf, o'sma kasalligi, bachadon bo'yni, virusning yuqori onkogen turlari, xavf guruhi, ayollar, erkaklar.

Аннотация. Вирус папилломы человека (ВПЧ) — это группа из более чем 200 распространенных вирусов, которые находятся на коже и слизистых оболочках. Они передаются через контакт кожа-к-коже, в основном во время полового контакта. По данным Всемирной организации здравоохранения, в настоящее время существует более 200 типов вируса папилломы человека, около 30 из которых могут вызывать генитальные бородавки. Четырнадцать типов вируса папилломы человека считаются онкогенными и имеют высокую вероятность возникновения рака, а типы 16 и 18 вируса папилломы человека считаются опасными в этом отношении, так как вызывают рак шейки матки у 70% женщин. Мужчины

также подвержены риску, поскольку высокорисковые штаммы вируса могут вызывать рак носоглотки, полового члена и других органов у мужчин. 90% инфекций ВПЧ проходят или становятся неактивными в течение 12–24 месяцев после заражения. Однако высокоонкогенные типы ВПЧ могут сохраняться в организме, увеличивая риск развития онкопатологии как у женщин, так и у мужчин.

Ключевые слова: Вирус папилломы человека, штаммы, вирус, высокий риск, опухолевое заболевание, шейка матки, высокоонкогенные типы вируса, группа риска, женщины, мужчины.

Annotation. Human papillomavirus (HPV) is a group of more than 200 common viruses that reside on the skin and mucous membranes. They are transmitted through skin-to-skin contact, primarily during sexual contact. According to the World Health Organization, there are currently more than 200 types of HPV, about 30 of which can cause genital warts. Fourteen types of human papillomavirus are considered oncogenic and have a high probability of causing cancer, and types 16 and 18 of the human papillomavirus are considered dangerous in this regard, as they cause cervical cancer in 70% of women. Men are also at risk because high-risk strains of the virus can cause cancer of the nasopharynx, genitals, and other organs in men. 90% of HPV infections go away or become inactive within 12 to 24 months after infection. However, high-risk HPV infections persist in the body, increasing the risk of cancer among men and women.

Key words: Human papillomavirus, strains, virus, high risk, tumor disease, cervix, highly oncogenic virus types, risk group, women, men.

Muammoning dolzarbligi. Odam papilloma virusi (OPV) (Human papillomavirus, HPV) terida va shilliq pardalarda joylashuvchi keng tarqalgan 200 dan ortiq shtamlardan iborat virus guruhidir. Ular teri orqali kontaktda bo'lganda va asosan jinsiy aloqa paytida yuqadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirda odam papilloma virusining 200 dan ortiq OPV turlari mavjud bo'lib, ulardan taxminan 30 tasi jinsiy a'zolarining o'sma kasalligiga olib kelishi mumkin. Odam papilloma virusi mavjud bo'lgan bemor tomonidan ishlatiladigan buyumlarga tegilganda yuqish xavfi mavjud bo'lsada, u minimal darajada hisoblanadi. Odatda, OPV jinsiy aloqa orqali o'tadi. Erkaklar orasida kasallikning tashuvchilari ko'p. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, erkaklarning 85 foizi nikohdan oldin jinsiy aloqa qilishadi. Shu bilan birga, ayollar orasida bu ko'rsatkich 10-15 foizni tashkil etadi.

Kuchli immunitet tizimi mavjud bo'lgan organizmga OPV tushganidan keyin virusning saratonga aylanishi 15 yildan 20 yilgacha davom etishi mumkin. Agar immunitet zaiflashgan bo'lsa va davolash amalga oshirilmasa, jarayon juda tez rivojlanishi va organizmda onkologiya 5-10 yil ichida paydo bo'lishi mumkin.

So'nggi o'n yilliklarda butun dunyo bo'ylab

OPV infeksiyalari soni 10 baravardan ko'proq oshdi va epidemiologik hisob-kitoblarga ko'ra, aholining 9-13 foizini tashkil etadi, bu taxminan 630 million kishiga teng [1].

Odam papillomasi virusining 14 ta turi onkogen hisoblanib, o'sma kasalligini keltirib chiqarishi mumkin. Bu borada odam papillomasi virusining 16-chi va 18-chi turlari ayollarda 70% holatda bachadon bo'yni o'sma kasalligini keltirib chaqirishi bilan xavfli hisoblanadi [8]. Odam papillomavirusi eng keng tarqalgan infeksiyalardan biridir. Bu virus ayollar va erkaklar uchun ham xavfli, chunki virusning yuqori onkogen turlari erkaklarda burun-xalqum, jinsiy va boshqa a'zolar o'sma kasalligini keltirib chiqarishi mumkinligi isbotlangan [8,9]. Har yili OPVning ma'lum turlari soni o'sishda davom etmoqda, aksariyat yangi variantlar odamlarda ajratiladi. Past onkogen potentsialga ega bo'lgan viruslar guruhiga asosan 6, 11, 42, 43 va 44 turlari kiradi, yuqori onkogen shtammlar esa 16, 18, 31, 33, 35, 39, 45, 51, 52, 56, 58, 59, 56 va 16-turlarni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda erkaklar va ayollar o'rtasida odam papilloma virusining (OPV) uchrash holatlari bo'yicha ko'plab ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Erkaklarda OPV bilan bog'liq o'sma kasalliklar tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda.

Erkaklar orasida OPV bilan bog'liq yangi saraton kasalliklari geografik mintaqaga qarab sezilarli darajada farq qiladi, masalan: rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda ayollar orasida bachadon bo'yni saratoni keng tarqalganligi sababli kasallanish darajasi yuqoriligi qolmoqda [2].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) statistik ma'lumotlariga ko'ra, saraton dunyo bo'ylab o'limning eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri hisoblanadi: 2012-yilda saratonning turli shakllaridan 8,2 million kishi vafot etgan va so'nggi yillarda bu ko'rsatkich o'zgarishdan kelmoqda. Virusli infeksiyalar odamlarda rivojlanayotgan xavfli o'sma kasalligining barcha holatlarining 15-20% sababi sifatida aniqlanadi, bir nechta viruslar xavfli o'smalarning ko'p bosqichli rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yigirma yil ichida bir nechta viruslar odamlarda o'sma kasalligining ayrim turlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ldi [3].

Virusga duchor bo'lgandan keyin 12-24 oy ichida OPV infeksiyalarining 90% yo'qoladi yoki faol bo'lmaydi. Ammo, yuqori xavfli OPV infeksiyalari saqlanib qoladi va bu bachadon bo'yni o'sma kasalligining paydo bo'lish xavfini oshiradi [4]. Afrikaning Sahroi Kabirdagi erkaklarda OPV tarqalishining tahlili shuni ko'rsatdiki, har qanday OPV turining tarqalishi 19,1 dan 100% gacha [5].

Umumiy aholi soniga kelsak, OPV-16 va OPV-52 turlari erkaklar orasida tarqalish xavfi yuqori, eng past xavf esa OPV-6 turida kuzatilgan [6]. OPV infeksiyasining 6, 11, 16, 18 yoki boshqa turlarini yuqtirish xavfi sub'ektlarning yoshi bilan bog'liq emas. Shuni ta'kidlash kerakki, OPV infeksiyasining tarqalishiga eng katta ta'sir bir nechta jinsiy sheriklarga ega bo'lganligi aniqlangan [7].

Odam papilloma virusining 14 ta turi onkogen hisoblanib, o'sma kasalligini keltirib chiqarishi mumkin. Bu borada odam papilloma virusining 16-chi va 18-chi turlari ayollarda 70% holatda bachadon bo'yni o'sma kasalligini keltirib chaqirishi bilan xavfli hisoblanadi. Erkaklar ham xavf guruhiga kiradi, virusning yuqori onkogen turlari erkaklarda burun-xalqum, jinsiy va boshqa a'zolar o'smasini keltirib chiqarishi mumkin [8].

Odam papilloma virusining jinsiy yo'l orqali yuqishi 80% holatda kuzatilib, yuqtirib olgan odamlarda klinik belgilar yillar davomida

kuzatilmaligi mumkin va ular ma'lum vaqt davomida o'zi bilmasdan boshqa insonlarga odam papilloma virusini yuqtirib yurishi ham mumkin.

Tadqiqot maqsadi. Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda odam papillomasi virusi bilan bog'liq o'sma kasalliklarining uchrash holatlarini o'rganish.

Material va usullar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlarining tahlili o'tkazildi.


Tadqiqotning ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra 2019 yildan 2023 yilgacha bo'lgan besh yil davomida respublikada yangi paydo bo'lgan o'sma kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichlari.

Olingan natijalar.

O'zbekiston Respublikasida odam papillomasi virusini yuqtirish natijasida yangi paydo bo'lgan o'sma kasalligi bilan kasallanish holatlarining yillar bo'yicha retrospektiv tahlili o'tkazildi (1-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra 2019 yildan 2023 yilgacha bo'lgan besh yil davomida respublikada yangi paydo bo'lgan o'sma kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichlari 2019 yilga nisbatan 2020-2023 yillarda sezilarli darajada o'sish holatlari kuzatilgan, bu ko'rsatkichlar o'z navbatida respublikamizda o'sma kasalliklarini erta aniqlash, davolash va eng asosiysi o'sma kasalligining oldini olish choralari takomillashtirish muhimligini ko'rsatmoqda.

O'tkazilgan retrospektiv tahlil natijalariga ko'ra respublika bo'yicha 2019 yilda 46,0 ming nafar birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan yangi o'sma kasalliklari ro'yxatga olingan, 2020 yilda 73,3 ming nafar birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan yangi o'sma kasalliklari ro'yxatga olingan, 2021 yilda 87,0 ming nafar birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan yangi o'sma kasalliklari ro'yxatga olingan, 2022 yilda 81,2 ming nafar birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan yangi o'sma kasalliklari ro'yxatga olingan va 2023 yilda 81,1 ming nafar birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan yangi o'sma kasalliklari ro'yxatga olinganligi ma'lum bo'ldi.



1-rasm. Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan yangi o'sma kasalliklari, ming holatlar soni (abs.sonda).

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida 2019-2023 yillar davomida birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan yangi paydo bo'lgan o'sma kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichlari 2019 yilga nisbatan 2020-2023 yillarda sezilarli darajada o'sish holatlari

kuzatilgan, bu natijalar respublikamizda o'sma kasalliklarini erta aniqlash, davolash va eng asosiysi o'sma kasalligining oldini olish choralari takomillashtirish muhimligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Churuksaeva O.N., Kolomies L.A., Vidyaeva I.G., Urazova L.N., Nikitina Ye.G. Virus-assotsirovanny i virus-negativnyy rak sheyki matki: klinicheskie osobennosti. // Problemy zdorovya i ekologii. 2010. T. 23, N 1. C. 62-64.

2. Bouwes Bavinck JN, Neale RE, Abeni D, Euvrard S, Green AC, Harwood CA, de Koning MN, Naldi L, Nindl I, Pawlita M, Pfister H, Proby CM, Quint WG, ter Schegget J, Waterboer T, Weissenborn S, Feltkamp MC. Multicenter study of the association between betapapillomavirus infection and cutaneous squamous cell carcinoma. // Cancer Res. 2010. Vol. 70, N 23. P. 9777-9786.

3. McLaughlin-Drubin M. E., Munger K. Viruses associated with human cancer // Biochim Biophys Acta. - 2008. - Mar. - T. 1782, № 3. - C. 127-150.

4. Asiaf A., Ahmad S. T., Mohammad S. O., Zargar M. A. Review of the current knowledge on the epidemiology, pathogenesis, and prevention of human papillomavirus infection // Eur J Cancer Prev. - 2014. - May. - T. 23, № 3. - C. 206-224.

5. Olesen T. B., Munk C., Christensen J., Andersen K. K., Kjaer S. K. Human papillomavirus prevalence among men in sub-Saharan Africa: a systematic review and meta-analysis // Sex Transm Infect. - 2014. - Sep. - T. 90, № 6. - C. 455-462.

6. Smith J. S., Gilbert P. A., Melendy A., Rana R. K., Pimenta J. M. Age-specific prevalence of human papillomavirus infection in males: a global review // J Adolesc Health. - 2011. - Jun. - T. 48, № 6. - C. 540-5528.

7. Vardas E., Giuliano A. R., Goldstone S., Palefsky J. M., Moreira E. D., Jr., Penny M. E., Aranda C., Jessen H., Moi H., Ferris D. G., Liaw K. L., Marshall J. B., Vuocolo S., Barr E., Haupt R. M., Garner E. I., Guris D. External genital human papillomavirus prevalence and associated factors among heterosexual men on 5 continents // J Infect Dis. - 2011. - Jan 1. - T. 203, № 1. - C. 58-65.

8. Iskandarova G. T., Rakhmanova J. A. TOPICAL ISSUES OF INCREASING INFORMATION ON THE VACCINE AGAINST HUMAN PAPILLOMA VIRUS IN UZBEKISTAN //Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. – 2020. – №. 1. – C. 104-107.

9. Rakhmanova J. A. OVERVIEW: EPIDEMIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF HPV IN UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – C. 66-68.

